



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
TRANSPORT NAZORATI INSPEKSIYASI

**B U Y R U Q**

10 oktabr 2024 yil.

709-son

**Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" O'RQ-419-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarorining hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 829-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi (keyingi o'rinnarda – Inspeksiya) tizimida korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish tartibi hamda ularning ta'qibga olinmasligini kafolatlash to'g'risidagi Yo'riqnomalar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis (Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul) (O'.Ochilov) va hududiy bo'lim boshliqlari ushbu hujjatning ijrosi bo'yicha doimiy ravishda nazorat olib borsin.

3. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis (Korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul) (O'.Ochilov) amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan muddatlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda Inspeksiyaning hay'at yig'ilishlarida tegishli ma'lumotlarni kiritib borsin.

4. Devonxona (D.Fazilova) mazkur buyruq bilan Inspeksiyaning markaziy apparati va hududiy bo'limlarni tanishtirish maqsadida yetkazilishini ta'minlasin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.



**Inspeksiya boshlig'i**

**J.Karimov**

O‘zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi huzuridagi  
Transport nazorati inspeksiyasining  
20<sup>24</sup>-yil 10-oktabrdagi  
709-son buyrug‘iga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati  
inspeksiyasida korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish mexanizmi,  
xabar bergap xodimlarni rag’batlantirish tartibi hamda ta’qibga  
olinmasligini kafolatlash to‘g’risida**

**YO‘RIQNOMA**

Mazkur yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g’risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g’risida” PQ-81-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag’batlantirish tartibi to‘g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 829-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiysi (keyingi o‘rinlarda - Inspeksiya)da korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergen xodimlarni rag’batlantirish tartibi hamda ularning ta’qibga olinmasligini kafolatlash yuzasidan munosabatlarni belgilaydi.

**1-bob. Umumiyligida qoidalar**

1. Mazkur yo‘riqnoma quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Korrupsiya** - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** - korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishni rag’batlantirish** - xodimning korrupsiyaviy holatlar haqida belgilangan tartibda og’zari yoki yozma ravishda o‘z vaqtida xabar bergenligi uchun taqdirlash;

**korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** - ish jarayoni va boshqa paytda korrupsiyaviy holatlar yuzasidan o‘z vaqtida rahbariyatga hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish.

## **2-bob. Tizimda korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berish mexanizmi**

2. Transport nazorati inspeksiyasi xodimi (bundan buyon matnda – “xodim” deb yuritiladi) ish jarayoni va ishdan tashqari vaqtarda korrupsiyaviy holatlarga shaxsan duch kelgan paytda yoki ushbu jarayonlar to‘g’risida xabardor bo‘lgan vaziyatda darhol Inspeksiya rahbariyatiga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qiladi.

3. Xodim ish faoliyatida korrupsiyaviy holatlar yuzasidan darhol Inspeksiya rahbariyati nomiga bildirishnomada bilan murojaat qilishi yoki ularni og’zaki ravishda xabardor qilishi lozim.

4. Agar xodim korrupsiyaviy holatlar to‘g’risida og’zaki ravishda murojaat qilgan taqdirda, darhol ushbu holat yuzasidan Inspeksiya rahbariyati ishtirokida dadalqlatnomalar rasmiylashtiriladi.

5. Rahbariyat nomiga korrupsiyaviy holatlar to‘g’risida yozilgan bildirishnomada yuzaga kelgan vaziyat xodim tomonidan to‘liq yoritib berilishi lozim. Ushbu bildirishnomada shu kunning o‘zida tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimga ustxati asosida qonuniy to‘xtamga kelishlik maqsadida topshiriladi.

6. Korrupsiyaviy holatlari to‘g’risida berilgan xabar xodimning bildirishnomasi yoki dalolatnomada siflatida rasmiylashtirilgan so‘ng, bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol aloqa xatiga tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda yuboriladi.

7. Xodimning korrupsiyaviy holatlar haqida yozgan bildirishnomasida quyidagi holatlar aniq aks ettirilishi lozim:

- xodimning xizmat joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;
- korrupsiyaviy omilni keltirib chiqarayotgan vaziyat va taklif qilayotgan subyekt to‘g’risidagi ma’ lumotlar;
- korrupsiyaga oid huquqbazarlikning mohiyati (mansab lavozimini suiste’mol qilish, pora olish va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etishga undash, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqalar);
- korrupsiyaga oid huquqbazarlikka undash usuli (muayyan xizmat yoki moddiy qimmatliklar taklif qilish, o‘ziga og’dirishga harakat qilish, tazyiq o’tkazish, qo‘rqtish va boshqa holatlar);
- korrursiuaga oid huquqbazarlik sodir etilishi kutilayotgan joy va belgilanayotgan vaqt;
- korrupsiyaga oid huquqbazarlikka undash holati tafsilotlari (telefon aloqa vositasi, suhbat jarayoni, shaxsiy muloqot, pochta jo‘natmasi orqali va boshqalar).

8. Korrupsiyaviy holatlar to‘g’risida shaxsan xabardor bo‘lgan holda o‘z vaqtida xabar bermagan xodimlarning harakat yoki harakatsizligi qonunchilik

hujjatlariga asosan tegishli intizomiy, ma'muriu va jinoiy javobgarlikka torlishga asos bo'ladi.

9. Xodimlar tomonidan qasddan va g'arazli maqsadlarda anonim yoki korrupsiyaviy holatlar to'g'risida asossiz xabar qilganlik yuzasidan tegishli qonunchilik hujjatlariga asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan javobgarlik masalasi ko'rib chiqiladi.

### **3-bob. Korrupsiyaviy holatlar yuzasidan xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish tartibi**

10. Xodimning korrupsiyaviy holatlari to'g'risida bergan xabari asosida jinoyatning oldi olingan yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat fosh etilib, davlat va jamiyatga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararning oldi olingan taqdirda tegishli hujjatlarga asosan Inspeksiya xodimlari rag'batlantiriladi.

11. Xodimni rag'batlantirish bilan birga mehnat jamoasida obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish maqsadida Inspeksiyada tashkil etiladigan "Namunali xodim" devoriy ko'rgazmasida doimiy ravishda ushbu xodimlarning fotosuratlari ilib boriladi.

12. Inspeksiyadada korrupsiyaviy holatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar bergan xodimni rag'batlantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 829-sodan qarori talablariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

13. Xodimni rag'batlantirish bo'yicha har bitta korrupsiyaviy holat to'g'risida xabar beraganligi yuzasidan tashkilotning moliyaviy holatidan kelib chiqib, ushbu taqdim etilgan xabarga ko'ra qilmishning ijtimoiy xavfliligi asosida har chorak yakunida bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan 10 (o'n) baravarigacha miqdorda bir marotabalik mukofot puli beriladi.

14. Xodim korruptsiyani oldini olish va bu haqda o'z vaqtida rahbariyatga yoki korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ams'ul xodimga xabar beraganligi uchun bildirishnomasi yoki tuzilgan dalolatnorna asosida rag'batlantiriladi.

Xodimning korrursiyaviy holatlar to'g'risidagi murojaati asosida rag'batlantirish Inspeksiya boshlig'inining tegishli buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

15. Xodimning faoliyatini baholashda korrupsiyaviy holatlar yuzasidan o‘z vaqtida xabar berganligi bo‘yicha rag’batlantirilganligi uning yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda alohida e’tiborga olinadi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy holatlar haqida xabar bergan xodimni ta’qibga olinmasligini kafolatlash**

16. Korrupsiyaviy holatlar bo‘yicha o‘z vaqtida xabar bergan xodimning ta’qibga olinmasligini kafolatlash yuzasidan Inspeksiya va hududiy bo‘limlarining boshliqlari zarur choralarni ko‘radilar.

17. Xodimning ta’qibga olinmasligini kafolatlash yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga shaxsan birinchi rahbarning imzosi bilan tegishli xat yuboriladi.

#### **5-боб. Yakuniy qoidalar**

18. Mazkur Yo‘riqnomalarini buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.